

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

INSON KAPITALINI UMUMIYIJTIMOIY MAQSADLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI: AKSIOLOGIK VA INSTITUTSIONAL TAHLIL

A'zamova Zarnigor Farxodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: zarnigor@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-7218-6125>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada inson kapitalini umumijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlashtirishning aksiologik, institutsional va funksional mexanizmlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Inson kapitalini uyg'unlashtirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar, shuningdek, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitali hamda umumijtimoiy maqsadlar o'rtasidagi mutanosiblik o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson kapitalini umumijtimoiy maqsadlarga yo'naltirish iqtisodiy samaradorlik, barqaror taraqqiyot va ijtimoiy adolatni birlashtiruvchi strategik mexanizm hisoblanadi. Maqolada dissertatsiyadan olingan ikkita original jadval keltirilgan bo'lib, ular aksiologik asoslar va tizimli omillarni tavsiflaydi. Yangi O'zbekiston sharoitida inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda analiz va sintez, dialektik, sinergetik, tarixiylik va mantiqiylik, tizimli hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, umumijtimoiy maqsadlar, aksiologiya, institutsional mexanizm, barqaror taraqqiyot, raqamli transformatsiya, ijtimoiy adolat, Yangi O'zbekiston.

МЕХАНИЗМЫ СОГЛАСОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА С СОЦИАЛЬНЫМИ ЦЕЛЯМИ: АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аъзамова Зарнигор Фарходжон кизи

Ферганский государственный университет, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье с социально-философской точки зрения анализируются аксиологические, институциональные и функциональные механизмы гармонизации человеческого капитала с общесоциальными целями. Рассматриваются социальные, экономические и культурные факторы, влияющие на гармонизацию человеческого капитала, а также соотношение человеческого капитала и общесоциальных целей в условиях глобализации и цифровой трансформации. Результаты исследования показывают, что ориентация человеческого капитала на достижение общесоциальных целей представляет собой стратегический механизм, объединяющий экономическую эффективность, устойчивое развитие и социальную справедливость. В статье представлены две оригинальные таблицы, взятые из диссертационного исследования и характеризующие аксиологические основы и системные факторы. В условиях Нового Узбекистана развитие человеческого капитала рассматривается как одно из приоритетных направлений государственной политики. В исследовании применены методы анализа и синтеза, диалектический и синергетический подходы, принципы историзма и логического анализа, а также системный и сравнительный методы.

Ключевые слова: человеческий капитал, общесоциальные цели, аксиология, институциональный механизм, устойчивое развитие, цифровая трансформация, социальная справедливость, Новый Узбекистан.

MECHANISMS FOR ALIGNING HUMAN CAPITAL WITH SOCIAL GOALS: AXIOLOGICAL AND INSTITUTIONAL ANALYSIS

A'zamova Zarnigor Farxodjon qizi

Fergana State University, Independent Researcher.

Abstract.

This article provides a socio-philosophical analysis of the axiological, institutional, and functional mechanisms for harmonizing human capital with broader social goals. It examines the social, economic, and cultural factors influencing the harmonization of human capital, as well as the relationship between human capital and broader social objectives in the context of globalization and digital transformation. The findings indicate that aligning human capital with broader social goals constitutes a strategic mechanism that integrates economic efficiency, sustainable development, and social justice. The

article presents two original tables derived from the dissertation research, which characterize the axiological foundations and systemic factors. In the context of New Uzbekistan, human capital development is considered a priority area of state policy. The study employs methods of analysis and synthesis, dialectical and synergetic approaches, the principles of historicism and logical analysis, as well as systemic and comparative analysis.

Keywords: human capital, broader social goals, axiology, institutional mechanism, sustainable development, digital transformation, social justice, New Uzbekistan.

Kirish. Globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlashtirish zamonaviy ijtimoiy falsafaning muhim muammolaridan biriga aylandi. BMTning 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) dasturida sifatli ta'lim (BRM 4), munosib mehnat (BRM 8), tengsizlikni qisqartirish (BRM 10) inson kapitalini umumiy manfaatlariga yo'naltirishning ustuvor vazifalari sifatida belgilangan [1]. Ushbu jarayon nafaqat iqtisodiy, balki chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [2]. Prezident Shavkat Mirziyoyev "asosiy maqsadimiz — mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish" ekanligini ta'kidlab o'tgan [3]. Shu bois inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi: inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlarga yo'naltirishning aksiologik, institutsional va funksional mexanizmlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslash. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, inson kapitalini uyg'unlashtirishda aksiologik omillar institutsional omillar bilan teng darajada hal qiluvchi ahamiyatga egaligi ko'rsatib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Inson kapitaliga doir nazariy asoslar T. Shuls [4] va G. Bekker [5] asarlarida ishlab chiqilgan bo'lib, ular bilim va ko'nikmalarni iqtisodiy investitsiya sifatida talqin qilganlar. D. Acemoglu va J. Robinson [6] inklyuziv institutlar va inson kapitalining barqaror rivojlanishdagi roliga e'tibor qaratdi. E. Brynjolfsson va A. McAfee [7] raqamli texnologiyalar va inson kapitalining o'zaro bog'liqligini o'rganib, raqamli transformatsiya sharoitida yangi ko'nikmalar zaruratini asoslab berdi.

Qadriyatlar va axloq tizimlari nuqtayi nazaridan inson kapitalini tahlil qilishda F. Fukuyama [8] ijtimoiy ishonch va fuqarolik madaniyatining inson kapitaliga ta'sirini ko'rsatib berdi. K. Shvab [9] to'rtinchi industrial inqilob sharoitida inson kapitalining yangi aksiologik talablarini belgiladi. O'zbekiston tadqiqotchilaridan N. Usmonov [10] va Q. Qosimov [11] milliy kontekstda inson kapitali rivojlanishining institutsional jihatlarini o'rgandi. G'. G'affarova [12] esa inson kapitalini umumijtimoiy maqsadlar bilan bog'lash masalasida qimmatli xulosalar ishlab chiqdi.

UNDP [13], OECD [14], WEF [15] va UNESCO [16] hisobotlari inson kapitaliga investitsiya qilishning umumijtimoiy samaralarini miqdoriy jihatdan asoslab, milliy siyosat uchun amaliy tavsiyalar bergan. T. Piketty [17] kapital va tengsizlik muammolarini tahlil qilib, inson kapitalini adolatli taqsimlashning nazariy asoslarini yaratdi.

C. Goldin [18] ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etib, inson kapitaliga tizimli yondashuv zarurligini isbotladi. E. Hanushek va L. Woessmann [19] ta'lim sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi kuchli korrelyatsiyani empirik asosda ko'rsatib berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodologik tamoyillar qo'llanilgan: analiz va sintez metodi — inson kapitalini uyg'unlashtirish mexanizmlarining tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish va ularni tizim sifatida birlashtirish uchun; dialektik metod — inson kapitali va umumiyijtimoiy maqsadlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ziddiyatlarni aniqlash uchun; sinergetik metod — aksiologik, institutsional va madaniy omillarning o'zaro ta'sirini tizimli o'rganish uchun; tarixiylik va mantiqiylik tamoyili — inson kapitalini uyg'unlashtirish nazariyasining evolyutsiyasini tadqiq etish uchun; qiyosiy tahlil metodi — xalqaro va milliy tajribalarni solishtirish uchun.

NATIJALAR

2.1. Inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlarga yo'naltirishning aksiologik asoslari

Inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlarga yo'naltirish shaxsiy manfaatlar bilan ijtimoiy manfaatlar bilan uyg'unligini ta'minlashni anglatadi. Bu jarayon ijtimoiy adolat, ijtimoiy mas'uliyat, hamjihatlik va barqaror rivojlanish kabi qadriyatlarga asoslanadi [11]. Zero, inson kapitali jamiyatning intellektual, ma'naviy va madaniy salohiyatini yuksaltirish orqali umumiy farovonlikka xizmat qilgandagina o'zining haqiqiy ijtimoiy vazifasini bajaradi [4].

Aksiologik nuqtayi nazardan inson kapitali ma'naviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashgandagina barqaror taraqqiyotni ta'minlay oladi [8]. Inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlarga yo'naltirish shaxsning ijtimoiy mas'uliyat darajasini belgilaydi va uni jamiyat taraqqiyotining faol subyektiga aylantiradi [9]. Shu nuqtayi nazardan aksiologik asoslarni tizimli tahlil qilish zaruriyati kelib chiqadi.

1-jadval. Inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlarga yo'naltirishning aksiologik asoslari

№	Umumiyijtimoiy maqsadlar	Inson kapitaliga ta'siri	Aksiologik asoslari
---	--------------------------	--------------------------	---------------------

1.	Barqaror taraqqiyotga erishish	Inson kapitalining uzoq muddatli rivojlanishini, ekologik ong va mas'uliyatni shakllantiradi	Barqarorlik, avlodlararo adolat, ekologik mas'uliyat, uyg'un taraqqiyot qadriyatlari
2.	Ijtimoiy adolatni ta'minlash	Ta'lim, sog'liq va mehnat imkoniyatlaridan teng foydalanishni ta'minlaydi	Adolat, tenglik, inson huquqlari, ijtimoiy mas'uliyat
3.	Inson farovonligiga erishish	Aholining hayot sifati, bilim va kasbiy salohiyatini oshiradi	Insonparvarlik, farovonlik, munosib hayot, qadr-qimmat
4.	Inson qadrini yuksaltirish	Insonning intellektual va ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi	Gumanizm, erkinlik, inson sha'ni va qadri
5.	Ijtimoiy birdamlikni ta'minlash	Ijtimoiy kapital, hamkorlik va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi	Birdamlik, hamjihatlik, bag'rikenglik, hamkorlik
6.	Inklyuziv rivojlanishga erishish	Jamiyatning barcha qatlamlari inson kapitali rivojida ishtirok etishini ta'minlaydi	Inklyuzivlik, teng imkoniyatlar, ijtimoiy sheriklik
7.	Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish	Fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas'uliyat va demokratik madaniyatni kuchaytiradi	Erkinlik, demokratiya, fuqarolik mas'uliyati, ishtirokchilik
8.	Innovatsion taraqqiyotni ta'minlash	Kreativlik, raqamli ko'nikmalar va intellektual salohiyatni rivojlantiradi	Yangilikka intilish, ijodkorlik, bilimparvarlik, ratsionallik
9.	Milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash	Axborot madaniyati, vatanparvarlik va ijtimoiy immunitetni shakllantiradi	Vatanparvarlik, xavfsizlik, mas'uliyat, milliy o'zlik
10.	Ma'naviy barkamol jamiyatni shakllantirish	Axloqiy yetuk, ma'naviy boy va ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalaydi	Ma'naviylik, axloqiylik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 10 ta aksiologik yo'nalish inson kapitalini faqat iqtisodiy resurs sifatida emas, balki jamiyatning ma'naviy va sivilizatsion taraqqiyotini ta'minlovchi strategik kapital sifatida baholashga imkon beradi [6]. Barqarorlik, adolat, gumanizm va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlar inson kapitalining umumiyijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilishini belgilovchi aksiologik matritsani tashkil etadi [9]. Shu bois mazkur jadvalda aks ettirilgan maqsad-ta'sir-qadriyat bog'liqligi inson kapitalini uyg'unlashtirish strategiyasining nazariy asosi hisoblanadi.

2.2. IJTIMOY, IQTISODIY VA MADANIY OMILLARNING TIZIMLI TAHLILI

Inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlashtirishga ta'sir etuvchi omillar uch guruhga bo'linadi: ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy [12]. Ijtimoiy omillar sifatida ta'lim va ilm-fan tizimi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya institutlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. OECD ma'lumotlariga ko'ra, ta'limga sarflangan 1 AQSH dollarlik investitsiya iqtisodiyotga o'rtaacha 10–15 dollarlik foyda keltiradi [14]. UNESCO hisobotlari esa umr davomida ta'lim olishni tashkil etish orqali inson kapitalining samaradorligi 30–40% gacha oshishi mumkinligini ko'rsatadi [16].

Iqtisodiy omillar — investitsiyalar, mehnat bozori, innovatsion muhit va raqamli iqtisodiyot — inson kapitalining raqobatbardoshligini belgilaydi [7]. Jahon banki [20] hisobotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasiga investitsiya qilinishi YaIM hajmida iqtisodiy o'sishni 1,38% gacha tezlashtiradi. WEF [15] ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, innovatsion muhit yuqori bo'lgan mamlakatlarning inson kapitali indeksi o'rtaacha 20% balandroq bo'ladi.

Madaniy omillar — milliy qadriyatlar, madaniy meros va ma'naviy-axloqiy muhit — inson kapitali rivojlanishining aksiologik asoslarini shakllantiradi [8]. F. Fukuyama [8] ijtimoiy ishonch darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda inson kapitalining ijtimoiy samaradorligi sezilarli darajada yuqoriroq bo'lishini empirik jihatdan asoslab berdi. O'zbekiston kontekstida "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim, sog'liq va ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning birligi inson kapitalini rivojlantirishning asosi sifatida belgilangan [2].

2-jadval. Inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlashtirishning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillari

№	Omillar	Mazmuni	Ta'siri
1.	Ta'lim va ilm-fan tizimi (ijtimoiy omil)	Sifatli ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va uzluksiz ta'limni ta'minlash	Insonning intellektual salohiyatini rivojlantirib, barqaror taraqqiyot, innovatsion iqtisodiyot va ijtimoiy adolatga erishishga xizmat qiladi
2.	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya (ijtimoiy omil)	Aholi salomatligini muhofaza qilish va ijtimoiy kafolatlarni kuchaytirish	Sog'lom va faol inson kapitalini shakllantirib, inson farovonligi hamda hayot sifati oshiradi
3.	Investitsiya va mehnat bozori (iqtisodiy omil)	Ish o'rinlari yaratish, munosib mehnat sharoitlari va inson kapitaliga sarmoya kiritish	Bandlikni ta'minlab, inson salohiyatining iqtisodiy samaradorligini oshiradi va inklyuziv rivojlanishga xizmat qiladi

4.	Innovatsion muhit va raqamli iqtisodiyot (iqtisodiy omil)	Ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalar va raqamli infratuzilmani rivojlantirish	Kreativlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirib, raqobatbardosh inson kapitalini shakllantiradi
5.	Milliy qadriyatlar va madaniy meros (madaniy omil)	Tarixiy meros, milliy an'analar va madaniy identiklikni saqlash	Vatanparvarlik, milliy o'zlik va ma'naviy barqarorlikni kuchaytirib, ijtimoiy birdamlikni ta'minlaydi
6.	Ma'naviy-axloqiy muhit (madaniy omil)	Umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida shaxs tarbiyasini ta'minlash	Axloqiy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli va fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni shakllantirib, ma'naviy barkamol jamiyat qurishga xizmat qiladi

2.2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, yagona omillar tizimi — ta'lim, sog'liq, investitsiyalar, raqamli muhit, madaniy meros — birgalikda inson kapitalini uyg'unlashtirish uchun zarur institutsional muhitni tashkil etadi [6]. Bu xulosalar D. Acemoglu va J. Robinson [6]ning inklyuziv institutsional muhitni barqaror taraqqiyotning asosi deb hisoblash g'oyasi bilan to'liq mushtarakdir.

2.3. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mutanosiblik

XXI asrda globallashuv va raqamli transformatsiya jamiyat taraqqiyotining asosiy tendensiyalariga aylanib, ijtimoiy munosabatlar tizimi va umumiyijtimoiy maqsadlarning mazmun-mohiyatini tubdan o'zgartirmoqda [9]. Postindustrial va axborot jamiyati sharoitida barqaror taraqqiyot, inson kapitali, raqamli tenglik, ekologik xavfsizlik va inklyuziv rivojlanish kabi maqsadlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda [1].

Raqamli transformatsiya ta'sirida inson kapitalining tarkibiy qismlarida muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda: raqamli savodxonlik, sun'iy intellektdan foydalana olish, katta ma'lumotlarni tahlil qilish va kiberxavfsizlik ko'nikmalari zamonaviy inson kapitalining muhim elementlariga aylandi [7]. E. Brynjolfsson va A. McAfee [7] ta'kidlaganidek, texnologik o'zgarishlar inson kapitaliga bo'lgan talablarni keskin oshirmoqda va an'anaviy ko'nikmalarni yangilash zarurati kuchaymoqda.

Globallashuv jarayoni inson kapitalini rivojlantirishda ham yangi imkoniyatlar, ham yangi xavflar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar orqali ta'limga, axborotga va global mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari kengaydi. Boshqa tomondan, raqamli tengsizlik, axborot xurujlari va madaniy assimilyatsiya kabi muammolar inson kapitalining umumiyijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilishiga to'siq bo'lishi mumkin [17]. K. Shvab [9] bu holatni "texnologik qarama-qarshilik" deb nomlagan.

O'zbekiston uchun globallashuv va raqamli transformatsiyaning inson kapitaliga ta'siri alohida ahamiyatga ega. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida 2030-yilga qadar Global innovatsion indeks reytingida jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirish va oliy ta'lim qamrovini 50 foizga yetkazish vazifalari belgilangan [2]. Bu maqsadlarga erishish inson kapitaliga tizimli investitsiya qilishni talab etadi [3].

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlarga yo'naltirishning o'ziga xos murakkab tizimli jarayon ekanligini ko'rsatdi. 2.1-jadvalda keltirilgan aksiologik asoslar tahlili shuni ko'rsatadiki, barqaror taraqqiyot, adolat, gumanizm va birdamlik kabi qadriyatlar inson kapitalini iqtisodiy resursdan sivilizatsion taraqqiyot omiliga aylantiruvchi asosiy katalizator vazifasini bajaradi. Bu xulosa F. Fukuyama [8] va K. Shvab [9] tadqiqotlari bilan to'liq mos keladi.

2.2-jadvaldagi omillar tahlili ko'rsatadiki, yagona omillar tizimi — ta'lim, sog'liq, investitsiyalar, raqamli muhit, madaniy meros — birgalikda inson kapitalini uyg'unlashtirish uchun zarur institutsional muhitni tashkil etadi. Bu xulosalar D. Acemoglu va J. Robinson [6]ning inklyuziv institutsional muhitni barqaror taraqqiyotning asosi deb hisoblash g'oyasi bilan to'liq mushtarakdir. Shu bilan birga, OECD [14] va UNESCO [16] tavsiyalari ta'limga investitsiya kiritishni inson kapitalini uyg'unlashtirishning birlamchi mexanizmi sifatida belgilaydi.

Globallashuv kontekstida inson kapitali va umumiyijtimoiy maqsadlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun raqamli tenglikni kuchaytirish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va fuqarolik institutlarini rivojlantirish zarur [13]. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar — oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, "El-yurt umidi" dasturi, IT ta'limini rivojlantirish — bu yo'nalishda muhim qadamlar hisoblanadi [2, 3].

Tadqiqotimizning asosiy xulosasi shundaki, inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlarga yo'naltirishda aksiologik omillar institutsional omillar bilan teng darajada hal qiluvchi ahamiyatga ega. Faqat iqtisodiy yondashuv yetarli emas; ijtimoiy mas'uliyat, milliy qadriyatlar va ma'naviy barkamollik inson kapitalining samarali yo'naltirilishining zarur shartidir [12]. Bu nuqtayi nazar T. Piketty [17] kapital tengsizligi nazariyasini to'ldiradi va inson kapitalining ijtimoiy adolat omili sifatidagi rolini mustahkamlaydi.

XULOSA

1. Inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlarga yo'naltirishning aksiologik asoslari insonparvarlik, adolat, erkinlik, ijtimoiy mas'uliyat, birdamlik va barqaror taraqqiyot kabi universal hamda milliy qadriyatlarga tayanadi. Mazkur qadriyatlar inson kapitalining iqtisodiy resurs sifatida emas, balki jamiyatning intellektual, ma'naviy va sivilizatsion taraqqiyotini ta'minlovchi strategik kapital sifatida namoyon bo'lishini belgilaydi.

2. Inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlashtirishning ijtimoiy omillari sifatida ta'lim, ilm-fan, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya institutlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ular insonning intellektual, jismoniy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali inson kapitali sifatini oshiradi va teng imkoniyatlar muhitini yaratadi.

3. Investitsiyalar, mehnat bozori, innovatsion muhit va raqamli iqtisodiyot inson kapitalini rivojlantirishning muhim iqtisodiy omillari bo'lib, umumiyijtimoiy maqsadlarni amalga oshirishning iqtisodiy poydevorini shakllantiradi.
4. Milliy qadriyatlar, madaniy meros va ma'naviy-axloqiy muhit inson kapitalining aksiologik mazmunini boyituvchi madaniy omillar sifatida shaxsda vatanparvarlik, milliy o'zlik, axloqiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirib, inson kapitalining ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanishini ta'minlaydi.
5. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitali hamda umumiyijtimoiy maqsadlar o'rtasidagi mutanosiblik jamiyatning barqaror taraqqiyoti va raqobatbardoshligini belgilovchi muhim qonuniyat sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli savodxonlik, innovatsion tafakkur va kreativ qobiliyatlar inson kapitalining yangi strategik elementlari hisoblanadi.
6. Yangi O'zbekistonda inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlashtirish "O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishi bo'lib, ta'lim, sog'liq, raqamli transformatsiya va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohalaridagi islohotlar bu jarayonning institutsional asosini tashkil etadi.
7. Inson kapitalini uyg'unlashtirish samaradorligi davlat, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlik darajasiga bog'liq bo'lib, mazkur hamkorlik inklyuziv rivojlanish va milliy taraqqiyotning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.
8. Zamonaviy sharoitda inson kapitalining raqamli kompetensiyalar, innovatsion tafakkur va kreativ qobiliyatlar bilan boyishi umumiyijtimoiy maqsadlarning mazmuni va amalga oshirish mexanizmlarini yangilamoqda. Bu esa inson markazli va innovatsion taraqqiyot paradigmasiga o'tish jarayonini tezlashtirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations. *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. – UN General Assembly Resolution A/RES/70/1, 2015. – [Source](#)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*. – [Manba](#)
3. Mirziyoyev Sh. *Inson kapitalini rivojlantirish – asosiy maqsad: ilm-fan va oliy ta'lim sohasidagi yig'ilish materiallari*. – Toshkent, 2019. <https://president.uz/oz/lists/view/2604>
4. Schultz T. W. Investment in Human Capital // *The American Economic Review*. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – P. 1–17. – DOI: [10.2307/1818907](https://doi.org/10.2307/1818907)
5. Becker G. S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. – University of Chicago Press, 1964.
6. Acemoglu D., Robinson J. A. *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. – Crown Publishers, 2012. – DOI: [10.1355/ae29-2j](https://doi.org/10.1355/ae29-2j)
7. Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. – W. W. Norton & Company, 2014.
8. Fukuyama F. Social Capital, Civil Society and Development // *Third World Quarterly*. – 2001. – Vol. 22, No. 1. – P. 7–20. – DOI: [10.1080/713701144](https://doi.org/10.1080/713701144)
9. Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. – World Economic Forum, 2016.
10. Usmonov N. N. Inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2022. – № 3. – B. 45–58.
11. Qosimov Q. Ijtimoiy falsafada inson kapitali tushunchasi // *Falsafa va huquq*. – 2021. – № 2. – B. 12–25.
12. G'affarova G'. Inson kapitalini umumiyijtimoiy maqsadlar bilan bog'lash masalalari // *Ijtimoiy fanlar*. – 2023. – № 1. – B. 33–47.
13. UNDP. *Human Development Report 2023/2024: Breaking the Gridlock*. – United Nations Development Programme, 2023. – [Source](#)
14. OECD. *Education at a Glance 2022: OECD Indicators*. – OECD Publishing, 2022. – DOI: [10.1787/3197152b-en](https://doi.org/10.1787/3197152b-en)
15. World Economic Forum. *The Global Human Capital Report 2023*. – World Economic Forum, 2023. – [Source](#)
16. UNESCO. *Education for Sustainable Development: A Roadmap*. – UNESCO Publishing, 2021. – DOI: [10.54675/YFHM9546](https://doi.org/10.54675/YFHM9546)
17. Piketty T. *Capital in the Twenty-First Century*. – Harvard University Press, 2014. – DOI: [10.4159/9780674369542](https://doi.org/10.4159/9780674369542)
18. Goldin C. A Grand Gender Convergence: Its Last Chapter // *American Economic Review*. – 2014. – Vol. 104, No. 4. – P. 1091–1119. – DOI: [10.1257/aer.104.4.1091](https://doi.org/10.1257/aer.104.4.1091)
19. Hanushek E. A., Woessmann L. *The Knowledge Capital of Nations: Education and the Economics of Growth*. – MIT Press, 2015. – DOI: [10.7551/mitpress/9780262029179](https://doi.org/10.7551/mitpress/9780262029179)
20. World Bank. *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. – World Bank Publications, 2021. – DOI: [10.1596/978-1-4648-1600-0](https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1600-0)